

O‘SMIR YOSHI O‘QUVCHILAR MA’NAVIY BARKAMOLLIK RUHIDA TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**Utamurodova Gulchexra Norboyevna, o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Annotatsiya:Maqola bugungi globallashuv jarayoniga xos bo‘lib unda O‘smir yoshi o‘quvchilar ma’naviy barkamollik ruhida tarbiyalashning psixologik asoslari mazmun mohiyati batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qadr, qadriyat, barkamol avlod, tarbiya jarayoni, milliy qadriyatlar, meros, dunyoqarash, ma’naviy madaniyat.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida jamiyat hayotining turli sohalarida keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. Islohotlarni amalga oshirishda jamiyat hayotini tubdan yangilash, fuqarolarda ishlab chiqarish va mehnatga bo‘lgan ijobiy munosabatni qaror toptirish, yaratuvchilik, bunyodkorlik hissini tarbiyalash, ijtimoiy munosabatlarning yangicha mazmun kasb etishiga erishish hamda erkin, mustaqil va har tomonlama barkamol shaxsni voyaga yetkazish maqsadlari ko‘zlandi. Mustaqil O‘zbekistonning kuch-qudrat manbai – xalqimizning umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligidir. Umuminsoniy qadriyatlar adolat, tenglik, ahil qo‘shnichilik va vatanparvarlik bo‘lib hisoblanadi. Xalqimiz bu qadriyatlarning nozik kurtaklarini asrlar osha avaylab-asrab kelmoqda. Bugungi kunda hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma’rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san’atda nimaiki yangi va ilg‘or jihatlar bo‘lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda. O‘zbek diyorida, tarixda ko‘p marta bo‘lganidek, yana yangidan o‘zimizning betakror va ilg‘or, iqtidorli va eng muhimi – insonlarga kerakli qadriyatlarimiz barpo etiladi.

Islohotlar davrida milliy qadriyatlarni qayta tiklash va ularni boyitish yo‘lida samarali ishlarning amalga oshirilganligi ertangi kun yaratuvchilari bo‘lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash zaruriyatini kun tartibiga olib chiqdi. “Ma’naviyat” tushunchasining tub ma’nosi “ruhiy holat” bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra axloqiy meros axloqiy tamoyil tushunchalarini anglatishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan adabiyotlarda qadr tushunchasiga quyidagiga tasnif berilgan.

“Ma’naviyat-insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi va irodasini baquvvat, iymon e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining me’zonidir”. [2.19].

Milliy g‘ururni shakllantirish uchun esa har bir millatning tarixi, ajdodlari bunyod etgan moddiy va ma’naviy qadriyatlari asosiy manba hisoblanadi. Qaysi millatning o‘tmishida mana shu manba qanchalik salmoqli bo‘lsa, yoshlarda milliy g‘ururni shakllantirish tezroq samaraga olib keladi. Bunday manbalar mamlakatimizda nafaqat Sharq, balki, jahon sivilizatsiyasi uchun muhim ekanligi ayni haqiqatdir.

“Ma’naviy madaniyat manbalarini o‘rganish, ularda olg‘a surilgan g‘oyalarga amal qilish, ularni kelgusi avlodlar ongiga singdirish jamiyat har bir

a'zosining vijdon oldidagi, Vatan oldidagi burchidir" [3.58], - deb uqtiradi O.Musurmonova o'zining "Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi" risolasida.

Darhaqiqat, mamlakatimizda har bir fuqaroning o'z burchi va majburiyati mohiyatida ma'naviyat va axloqiylikni qayta tiklash, o'zbek xalqi asrlar mobaynida yaratgan boy madaniyatni avaylab saqlash va kelgusi avlodlarga yetkazish, hurfikirlilik, vijdon va din erkinligini qaror toptirish, ma'naviy mulkni milliy qadriyat sifatida himoya qilish, maorif tizimida, xususan, yoshlarda umuminsoniy va milliy qadriyatlarning mazmuni va mohiyatini chuqur o'rganishga erishish kabi shartlarni amalga oshirish yotadi.

Xalqimizning ko'p asrlik ma'naviy merosida, milliy qadriyatlarimizda Vatanga, hayotga muhabbatning ifodasini, insonning yuksak burchi, ma'naviy qiyofasi haqidagi teran fikrlarni, fanga, dinga nisbatan mulohazalarni, yaxshi xulqli, odobli insonlar bo'lishga da'vatni, ilm va ma'rifatni egallashga chaqirishni, axloqiy g'oyalarni, go'zal, ibratli va mazmunli hayot kechirishni targ'ib qilishni yomon hislatlar ustidan kulish va boshqa holatlarni ko'rish mumkin.

Odob – axloqqa oid tushunchalarni e'zozlash, keng targ'ib qilish, bu fazilatlarni yoshlarning axloqiy xatti -harakatlariga singdirish, turmush tarzimizda anglab yetilgan ehtiyojiga aylantirish bugungi davr talabidir. Shuningdek, yoshlarni xalqimiz bir- necha ming yillar davomida yaratgan, avaylab – asrab kelayotgan ma'naviyat xazinalari, boy qadimiy merosi bilan tanishtirish, ularni yuksak madaniyatli insonlar qilib tarbiyalashdek vazifalar bilan hamohang ravishda ko'rilayotgan masalalar sirasiga kiradi.

Bu borada ustozlar tashabbusi, xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, ularga hurmat uyg'otilishi, milliy an'analarimiz va urf-odatlarimizning saqlanishi hamda mazmunan boyitilishi, shuningdek, madaniyat, san'at, ilm-fan, texnika-texnologiya, ta'lim-tarbiya har tomonlama taraqqiy etishida muhim rol o'ynaydi.

Xalqimizning milliy qadriyatlari, urf-odatlarida orasta va pokiza kiyinish, kamtarlik, oila, jamiyat orasida, do'stu-birodar, qarindosh – urug' oldida o'zini tuta bilish, xushmuomalalik azal-azaldan qadrlanib kelgan, hurmat saqlash va bajo keltirish, ig'vo va fitnalardan o'zoq yurish, o'zaro muomalada oddiylik va soddalik axloqning ma'lum bir o'lchovlaridan sanalgan. Jumladan, komil inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiyning Fozillar jamiyati («Fozil odamlar shahri»); Alisher Navoiyning adolatli jamiyat qurish haqidagi ta'limoti; Imom al-Buxoriyning hadis ilmining sultoni ekanligi; Mahmud az-Zamahshariyning Jarulloh («Ollohning qo'shnisi»), degan yuksak maqomga sazovor bo'lishi; Ahmad Yassaviy xikmatlari; Bahouddin Naqshbandiyning «Diling Ollohda, qo'ling mehnatda bo'lsin» («dil ba yoru, dast ba kor») yo'nalishlaridagi ta'limoti; At-Termiziy o'gitlari; Xoja Axrori Valiyning «Shayxlar shayxi», degan ulug' nomga sazovor bo'lishi; Yusuf Xos Hojib, Abbos al-Javhariy, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiylarning komil insonlar haqidagi ta'limotlari; Mahammad Muso al-Xorazmiy va Abu Rayhon al-Beruniylarning dunyoviy kashfiyotlari va hamda ijtimoiy-axloqiy qarashlari; Abu Ali ibn Sino tibbiyoti va uning komil insonni jismonan hamda ma'nan sog'lom qilib tarbiyalash g'oyasi; Amir Temur davlatchiligi va uning adolatli ijtimoiy-tashkilotchilik ishlari (Amir Temur adolatni

kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg'unlashtirdi. Tarixchi Arabshoxning Amur Temur hayoti haqidagi ma'lumotlarida uning yolg'on - yashiqning dushman bo'lganligi, hazil uning ko'ngliga yoqmasligi talon- tarojlik, qotillik, xotin - qizlarning nomusiga tegish, zo'rlash haqidagi hech qachon gapirishga yo'l qo'ymasligi haqiqat qanchalik achchiq va qattiq bo'lmasin, uni eshitishni yaxshi ko'rganligini yozib qoldirganligin ham fikrimizning dalilidir.

Buyuk sohibqiron Amir Temur ota-onani xurmatlash, ustozni e'zozlash ularni doimo qadrlash zarur deb bilib, quyidagi pand - nasihatlarini uqtiradi: "Ota bo'lmagan ota qadrini bilmaydi", "Ot mingan otasini unutmasin", "Oltmishga kirgan otadan osh so'rama".

Oila va jamiyat a'zolari birlik, inoqlik, do'stlik qonunlaridan chekinmasdan yashashlari, mehnat qilishlarini uqtirar ekan, "Birliksiz kuch bo'lmas", "Bir tayoqni sindirmoq mumkin, ko'p tayoqni bukib ham bo'lmas," "Qo'rqmasang yov qochar", "Qonni qon bilan emas, suv bilan yuvishni o'rgan" deb avlodlarga nasihat qiladi.

Amir Temur oilaviy do'stlikdan ijtimoiy, umumdavlat darajasidagi do'stlik, o'rtoqlik shakllanib boradi degan g'oyaga amal qiladi.

Sohibqiron yana shunday deydi: "Do'st - dushmani murosayu madora martabasida tutdim. Qilmishlarini, aytgan gaplarini gohida sabr - toqat, gohida bilib bilmaslikka olish bilan o'tkazdim. Do'st - dushmandan kimki menga iltijo qilib kelgudek bo'lsa, do'stlarga shunday muomala qildimki, do'stligi yanada ortdi, dushmanlarga esa shunday munosabatda bo'ldimki, ularning dushmanligi do'stlikka aylandi." [4.128].

Buyuk bobolarmizning o'lmas merosi bugungi - umumta'lim maktabi o'quvchilarining ma'naviy tarbiyasida va ayniqsa ularning milliy dunyoqarashi kengayishida bitmas-tuganmas xazinadir. O'quvchilar ongiga buyuk bobokolonlarimizning g'oyalarini ma'naviy qadriyat sifatida singdirish ularni ijodiy kamolotsari intilishiga turtki bo'ladi va natijada ular ijtimoiy faol shaxs bo'lishga intiladi, olimlik va komillik darajasiga erishishga havas qiladi.

Demak, milliy - ma'naviy qadriyatlarimiz haqidagi batafsil ma'lumotlar tayyorlash, ularni yoshlarimiz ongiga singdirishga qulay holga keltirib, ya'ni axborot ko'rishiga keltirib tizimlarga (qomusiy va hadis ilmi olimlari, shoirlar, yozuvchilar, tarixchilar, faylasuflar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan rasm-rusumlar va urf-odatlar, an'analar va h.k.) ajratish;

- umumta'lim maktabi o'quvchilarida shaxs kamolati bosqichlari asosida Vatan tuyg'usini shakllantirish va bunda ular ongiga Ona tuproq, Ona Vatan, Vatan sog'inchi, Vatan qayg'usi kabi tushunchalarga hurmat uyg'otish;

- umumta'lim maktabi o'quvchilar tarbiyasida «Barkamol avlod», «Kamil shaxs», «Olim», «Pahlavon», «Alloma», «Mutafakkir», «Donishmand» kabi kamolat bosqichlaridan aniq dalillar asosida ibrat-namuna tizimidan keng foydalanish lozim;

- qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirishda aniq fanlardan ta'lim-tarbiya berishda qomusiy olimlar, donishmand, faylasuflar ijodi va faoliyatidan foydalanish, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha esa shoirlar, yozuvchilar,

tarixchilar, xalq qahramonlari, davlat arboblari, hadis ilmi sohiblarini ibrat-namuna qilib ta'lim-tarbiya berish ijobiy pedagogik samaralarni beradi.

Xulosa qilib, shuni aytish lozimki, buyuk aql sohiblari va mashhur mutafakkirlar asarlarida ilgari surilgan g'oyalar ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan yangicha munosabatning kamol topdirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuniga milliy qadriyatlar mazmuni, Sharq mutafakkirlarining qarashlari va zamonaviy ijtimoiy-falsafiy, pedagogik va psixologik tadqiqotlarda o'z ifodasini topgan ma'naviy madaniyat mohiyati to'g'risidagi g'oyalarni singdirish kutilgan maqsadga erishishni kafolatlaydi. umumta'lim maktabi o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini izchil rivojlantirish maqsadida ta'lim muassasalarida bu borada to'plangan tajribalarni umumlashtirib borishga imon yaratiladi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov A. Qadriyat-ma'naviy merosdir. FF "Ma'rifat gulshani" g.-12(77) 2007 y .7-bet
2. Karimov I.A."Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch-T.: "Ma'naviyat"2008.19b
3. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – T.: O'qituvchi, 1996. – 192 b.
4. Musurmonova O va b. Ma'naviy barkamol axsni shallantirish-jamiyat taraqqiyotining asosi.-T.: "Fan va texnologiya" 2012.-128
5. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. – Toshkent: Istiqlol, 1999.–166 b.
6. Kamolova SH. O'quv bilish faoliyatining tasnifi haqida // "Fan, ta'lim va amaliyot" majmuasining dolzarb muammolari: ilmiy maqolalar to'plami. – Jizzax: JDPI, 2006. – № 1. – B. 83 – 88.
7. Kamolova, SH. O', & Munarova, R. O'. (2010). Urovni sovershenstvo lichnosti. Issledovatel nauchniy jurnal.–Qozo g'iston, 5(49), 100-105.
8. Kamolova, S., & Amanxonova, Y. (2022). O'quvchilar tafakkur jarayonlarini shakllantirishda pedagogik texnologiyalarning ahamiyati. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 2(6).
9. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii, 3(1).
10. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).
11. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In Aktualniye zadachi pedagogiki (pp. 184-186).
12. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In E Conference Zone (pp. 22-25).
13. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. Open Access Repository, 4(2), 500-505.

- 14.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).
- 15.Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
- 16.Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
- 17.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O ‘ZINI-O ‘ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 18.Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In E Conference Zone (pp. 11-16).
- 19.Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O‘RGANISHNING NAZARIY JIHATLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
- 20.Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.
- 21.Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
- 22.Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12.AHLOQIY JIHATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In E Conference Zone (pp. 6-12).
- 23.Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O‘QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In E Conference Zone (pp. 1-5).
- 24.Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O ‘TISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O ‘SMIRLAR KELIB CHIQUVCHILARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
- 25.Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. Общество и инновации. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI:<https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
- 26.Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING

PATOLOGIYASI. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 658-662.

27. Norbekova, B. (2022). O‘roqboyeva M. Maktabgacha ta’limda psixologik xizmatni tashkil etishning o‘ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari, 1(1), 481-483.

28. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>

19. Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYA SISTEMY OBRAZOVANIYA //Jurnal muzyki i iskusstva. – 2021. – T. 2. – №. 2.

29. Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).

30. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta’lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).

31. Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA’LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(1).
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>

32. Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA’LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173.
извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>